



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

INKLUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, AMALIY YO'NALISHLARI VA IJTIMOYIY-MADANIY INTEGRATSIYA JARAYONIDAGI O'RNI

Ahmedova Shohsanam Anvarjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

sirtqi ta'lim bo'limi, psixologiya yo'nalishi, 1-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Jakbarova Oyazim Mannopova.

Annotatsiya:

Mazkur tezisda inklyuziv ta'lim tushunchasining nazariy asoslari, xalqaro tajribalar, O'zbekiston sharoitida joriy etilishi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari chuqur tahlil etiladi. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy integratsiya jarayonida inklyuziv ta'limning tutgan o'rni va uning jamiyatdagi insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirishdagi roli ko'rsatib o'tiladi. Muallif tomonidan bir qator ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Inkluziv ta'lim, integratsiya, maxsus ehtiyojli bolalar, pedagogik yondashuv, ijtimoiy tenglik, ta'lim siyosati, metodika, diagnostika, hamkorlik.

Abstract:

This thesis provides a thorough analysis of the theoretical foundations of the concept of inclusive education, international experience, its implementation in the conditions of Uzbekistan, existing problems and ways to overcome them. It also shows the role of inclusive education in the process of socio-cultural integration and its role in the formation of humanistic values in society. The author puts forward a number of scientifically based proposals.

Keywords: Inclusive education, integration, children with special needs, pedagogical approach, social equality, educational policy, methodology, diagnostics, cooperation.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

KIRISH

Dunyoda inson huquqlari va ijtimoiy tenglik masalalari tobora dolzarb bo'lib borayotgan bugungi kunda, har bir shaxs uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish global ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Inkluziv ta'lim aynan shu masalaning markazida turadi. Bu ta'lim modeli orqali barcha bolalar, shu jumladan nogironligi yoki rivojlanishida cheklovlari bo'lgan bolalar ham umumta'lim tizimida o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda inkluziv ta'limni rivojlantirish borasida qator huquqiy, pedagogik va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu asosda maqolada inkluziv ta'limning nazariy asoslari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Nazariy asoslar va tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki: Inkluziv ta'lim konsepsiyasi UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Salamanca deklaratsiyasi (1994) asosida rivojlangan. Bu model Lev Vygotskiy, G. Gardner va P. Freyning g'oyalariga tayanadi. Maxsus metodik materiallarning yetishmasligi. Infratuzilma moslashmaganligi. Jamiyatda mavjud stereotiplar.

Tashkiliy-huquqiy mexanizmlar zaifligi Xalqaro tajriba Finlyandiya, Italiya, Yaponiya kabi davlatlar tajribasi misolida samarali modellar tahlil qilinadi. Ularning inkluziv tizimlaridagi yondashuvlari O'zbekiston uchun foydali tajriba bo'lishi mumkin. Ijtimoiy-madaniy integratsiya qilish zarur. Inkluziv ta'lim faqat ta'lim jarayoni bilan cheklanmaydi, balki jamiyatdagi madaniy qadriyatlar va insonlararo munosabatlarni shakllantiradi. Madaniy tadbirlar, jamoaviy o'yinlar, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda ijtimoiy ong o'zgarishiga xizmat qiladi.

TAKLIFLAR

Maxsus pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirish, har bir tumanda metodik markazlar ochish O'quv dasturlarini adaptatsiyalash Ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish Infratuzilmani modernizatsiya qilish "Eng yaxshi inkluziv maktab" tanlovini o'tkazish Monitoring tizimini yo'lga qo'yish Innovatsion texnologiyalar joriy etish.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th June, 2025

XULOSA

Inkluziv ta'lim jamiyatda insonparvarlik g'oyalarini mustahkamlovchi kuchli omil hisoblanadi. Bu tizimni rivojlantirish orqali biz nafaqat pedagogik yutuqlarga, balki keng ko'lamli ijtimoiy integratsiyaga erishishimiz mumkin. Inkluziv ta'lim modeli nogironligi bo'lgan bolalarning teng huquqli ishtirokini ta'minlaydi, ularni jamiyatda faol a'zo sifatida ko'rishga yordam beradi. Oila, maktab, jamoa va davlat o'rtasidagi faol hamkorlik orqali bu jarayon samarali amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, inkluziv ta'lim nafaqat alohida ehtiyojli bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, bu tizimning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi strategik ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Mamatqulov . "Maxsus pedagogika asoslari". Toshkent: TDPU, 2021.
2. D.Rasulova . "Inkluziv ta'lim metodikasi". Samarqand, 2020.
3. I.Karimov . "Ta'limda inson huquqlari va ijtimoiy adolat". Toshkent, 2019.Xorijiy mualliflar:
- 4.T.Booth T., Ainscow M. "The Index for Inclusion". UK: CSIE, 2011.
5. L.Florian . "The SAGE Handbook of Special Education". London: SAGE Publications, 2014.
6. UNESCO. "Inclusive Education: The Way of the Future". Geneva: UNESCO, 2009.